

O‘ZBEKISTONNING HINDISTON BILAN SAVDO-IQTISODIY HAMKORLIGINING UMUMIY AHVOLI

Tilavova Guljahon

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston-Hindistonning 1991-2019-yillardagi o‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorligi ma’lum sohalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Hindiston, savdo bitimi, M.Singx, farmasevtika, meva-sabzavot, eksport, Pokiston.

O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarida muhim o‘rinni iqtisodiy aloqalar tashkil qiladi. O‘tgan yillar davomida ushbu sohadagi aloqalar muttasil sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Aslida dunyo siyosatida davlatlararo hamkorlikning eng bosh masalasi ham birinchi navbatda o‘zaro manfaatli bo‘lgan iqtisodiy aloqalar tashkil qiladi. Agar davlatlarning o‘zaro munosabatida iqtisodiy manfaat ta’minlanmas ekan, davlatlar o‘rtasida aloqalar o‘z rivojidan to‘xtaydi. Shuning uchun ham davlat va hukumat yetakchilari avvalo o‘z davlatlarining manfaatidan kelib chiqib tashqi davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi.

Shuning uchun ham davlatlar o‘zaro munosabatlarning iqtisodiy tomoniga jiddiy ahamiyat berib, bu yo‘ldagi aloqalarni rivojlantirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar. Davlatlarning iqtisodiy aloqalarida savdo-iqtisodiy aloqalar katta o‘rinni tashkil etadi. O‘zbekistonning Hindiston bilan savdo-

iqtisodiy munosabatlariga asos bo‘lib, 1991-yilning 24-oktyabrida imzolangan "O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi savdo bitimi", 1993-yilning 24- mayida imzolangan "O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Hindiston Respublikasi hukumati o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar to‘g‘risidagi bitim"lar xizmat qiladi.

Xususan, 1991-yil 24-oktyabrda imzolangan "O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o‘rtasidagi Savdo Bitimi"da O‘zbekiston va Hindiston huqumatlari barcha yuridik va jismoniy shaxslarga o‘zaro tovarlar importi va eksporti bo‘yicha bitimlar tuzishga ruxsat berishlari; O‘zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi banklarida o‘z hisob raqamlarini ochish uchun ruxsat berishlari aloqida qayd etilgan.

XX asrning oxirgi yillarida ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanishi bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilganda ancha barqarorlik va muttasil o‘sib borishga tendensiyada ekanligini kuzatish mumkin.

2000-yilda tovar aylanishi 1998- yildagiga nisbatan 3,2 million AQSh dollariga oshgan. 2000-yilda tovar aylanishi 1992-yildagiga nisbatan 12 marotabaga, jumladan, eksport 10 marta, import esa deyarli 15 marta oshgan.¹

Tovar aylanishining asosiy omili O‘zbekistonning eksport kilinadigan tovarlari mikdori oshganligi va uning turli xom ashyo, material va boshqa mahsulotlarni Xindistondan import bo‘yicha xarid qilganligi bilan izoxlanadi.

2001-yilning birinchi yarim yilligida ikki davlat o‘rtasidagi tovar aylanishi 15,61 million AQSh dollarini tashkil qildi. Shu jumladan, eksport - 7,94 million dollar, import esa - 7,66 million dollarga teng bo‘ldi.²

¹ Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. –Т.: “Фан”, 2004. 161-бет.

² Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. –Т.: “Фан”, 2004. 161-бет.

O‘zbekiston Hindistonga uchish apparatlari, rangli metall va ulardan ishlangan buyumlar, arzon metallar, sabzavot, bezak uchun ishlatiluvchi qurilish materiallari, kimyoviy-shtapel tolalar va xizmat turlarini import qiladi. Hindistondan import tarzida qabul qiladigan tovarlar ro‘yxatida esa kuyidagilarni ko‘ramiz: qog‘oz va karton, farmasevtika mahsulotlari, organik kimyoviy birikmalar, shisha va undan tayyorlangan buyumlar, tamaki, kimyoviy preparatlar, mexanik uskunalar, turli priborlar, optik apparatlar, kofe, choy va shirinliklar, plastmassa va undan ishlangan buyumlar, shakar va hokazolar.

2000-yillardan keyingi ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojida 2002-yil iyunda imzolangan “O‘zaro anglashuv memorandum” muhim o‘rin tutdi.

2002-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekiston – Hindiston o‘rtasidagi tovar aylanmasi 40,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan, 2003-yilning 11 oyida davomida bu raqam 105,4 mln AQSh dollariga yetdi.³

2004-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekiston – Hindistonning o‘zaro savdo aylanmasi 38% o‘sib, 150,1 mln AQSh dollarini tashkil etdi.⁴

Qolaversa O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005- yil aprelda Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida imzolangan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hamkorlik qilish haqida kelishuv”, 2006-yil aprel oyida Hindiston Bosh vaziri M.Singxning O‘zbekistonga tashrifi davomida imzolangan “Savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida Kelishuv”, “Investisiyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish haqidagi Kelishuv”, “Ikki tomonlama soliqqa tortilishdan qochish haqida Kelishuv”lar XXI asr boshlaridan hamkor davlatlarning iqtisodiy aloqalarini yanada

³Деловой партнер. 2004, № 4, 22 январь.

⁴Деловой партнер. 2004 № 4, 22 январь.

rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘ldi.

2007-2008-moliya yilida O‘zbekiston – Hindiston savdo aylanmasi 73 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, keyingi – 2008-2009 moliya yilida bu raqam 15 % ortib, 120 mln AQSh dollariga yetgan. O‘zbekistonning shu yildagi eksporti birdaniga 352 % oshgan, bu paxta xom ashyosini sotish hisobiga amalga oshgan.⁵

2017-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston jahonning 160 dan ziyod davlati bilan savdo aloqalarini olib borgan. Tashqi savdo aylanmasi hajmi 2016- yilga solishtirganda 2017-yilda 26,9 mlrd AQSh dollariga yoki 11% oshgan. Shundan 13,9 mlrd dollar (51.7%) eksport ulushiga to‘g‘ri kelsa, yana 13,0 mlrd AQSh dollari (48,3%) miqdorida import amalga oshirilgan. Bu raqamlar 2016-yil bilan solishtirganda mos ravishda 114,9 % ga 107,2% tashkil qiladi. Tashqi savdo saldosi 880,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan 729,3 mln AQSh dollari MDH davlatlariga, 150,9 mln AQSh dollari boshqa mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.⁶

Hindistonning shu yildagi O‘zbekiston bilan tashqi savdosining umumiy hajmi 323,6 mln AQSh dollarini, O‘zbekiston eksporti – 32,5 mln, importi bo‘lsa 291,1 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

Shu yillar davomida Hindistonning asosiy eksport mahsulotlarini farmasevtika mahsulotlari, mexanik uskunalar, transport vositalari detallari, optik asboblarni tashkil etgan.

O‘zbekistonning Hindistonga eksportini mevalar va sabzavotlar, xizmatlar, mineral o‘g‘itlar, sharbat mahsulotlari, ekstraktlar va moylar tashkil etgan.

Ahamiyat tomoni shundaki, O‘zbekistonning Hindistonga eksportida asosiy mahsulotlar qatorida meva-sabzavotlarni ko‘rsatish mumkin, hatto Hindiston

⁵Деловой партнер, 2010, № 12, март.

⁶Жумаев К.Х. Внешняя торговля и ее роль в экономическом развитии Узбекистана// Ўзбекистон Республикаси давлат Статистика қўмитаси расмий веб сайти// <http://stat.uz/ru/press-tsentr/analiticheskiye>

O‘zbekistonning meva-saybzavot eksportida yuqori 10 talik davlatlar orasidan o‘rin egallagan.

Shunday qilib, yuqoridagi ma’lumotlardan shu holat ayon bo‘ladiki, Hindiston O‘zbekiston bilan savdo munosabatlarida tomonlarni qanoatlantiradigan darajada faol emas. Buning asosiy sababi birinchidan, transport logistikasi bilan bog‘likdir. Chunki o‘rtadagi mahsulotlar harakati aylanma yo‘llar orqali (Pokiston bilan Hindistonning dushmanlik kayfiyati va Afg‘onistondagi beqaror vaziyat) kirib kelmoqda. Bu o‘z-o‘zidan mahsulotlarning tan narhiga qo‘shimcha harajat narhlarining qo‘shilib ketishiga olib kelmoqda.